

AQSHNING MARKAZIY OSIYO SIYOSATIDA INSON HUQUQLARI VA GENDER TENGLIGI MASALALARI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-134-139>

Zabixulla Saipov,
siyosiy fanlar nomzodi (PhD),
mustaqil izlanuvchi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada AQSHning inson huquqlari va gender tengligi bo'yicha Markaziy Osiyo davlatlariga nisbatan siyosati tahlil qilingan. Unda Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston mamlakatlari bo'yicha AQSH hukumati va xalqaro tashkilotlar hisobotlari asosida yondashuvlar, dasturlar hamda ularning ta'siri ko'rib chiqilgan. Maqola AQSH ma'muriyatlari – demokratlar va respublikachilarning yondashuvlaridagi farqlari hamda mintaqadagi gender tengligi ko'rsatkichlari Jahon iqtisodiy forumining 2025-yilgi “Global gender tafovuti to'g'risidagi” hisoboti bilan solishtirib, dastlabki xulosalar chiqarishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: inson huquqlari, gender tengligi, AQSH siyosati, Markaziy Osiyo, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston.

ПОЛИТИКА США В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В ОБЛАСТИ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА И ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется политика США в отношении прав человека и гендерного равенства в странах Центральной Азии. Рассматриваются подходы, программы и их влияние на примере Казахстана, Кыргызстана, Таджикистана, Туркменистана и Узбекистана на основе отчетов правительства США и международных организаций. В статье также предпринята попытка сделать первоначальные выводы, сопоставив различия в подходах администраций США — демократов и республиканцев — и показатели гендерного равенства в регионе по данным доклада Всемирного экономического форума «О глобальном гендерном разрыве» от 2025 г.

Ключевые слова: права человека, гендерное равенство, политика США, Центральная Азия, Казахстан, Кыргызстан, Таджикистан, Туркменистан, Узбекистан.

U.S. POLICY IN CENTRAL ASIA ON HUMAN RIGHTS AND GENDER EQUALITY ISSUES

ABSTRACT

This article analyzes the US policy on human rights and gender equality in the countries of Central Asia. It examines the approaches, programs, and their impact in Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan, Turkmenistan, and Uzbekistan based on reports from the US government and international organizations. The article also attempts to draw preliminary conclusions by comparing the differences in approaches of US administrations — Democrats and Republicans — and the gender equality indicators in the region according to the WEF Global Gender Gap Report 2025.

Keywords: human rights, gender equality, U.S. policy, Central Asia, Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan, Turkmenistan, Uzbekistan.

KIRISH

1991–yilda Markaziy Osiyo davlatlari mustaqillikka erishgach, AQSH mintaqada energetika xavfsizlik, geosiyosiy raqobat yondashuvlari bilan bir qatorda ushbu mamlakatlarda demokratik transformatsiya va inson huquqlari masalalarini qo‘llab-quvvatlash siyosatini olib bordi. Yillar davomida Vashingtonning Markaziy Osiyo siyosatida bu strategik manfaatlar darajasigacha chiqmagan bo‘lsada, inson huquqlari va gender tengligi masalalari ikki tomonlama munosabatlarning ajralmas qismiga aylandi. Maqolaning obyekti – AQSH va Markaziy Osiyo o‘rtasidagi munosabatlar; predmeti – inson huquqlari va gender tengligi. Maqsad – demokratik (B.Klinton 1993–2001, B.Obama 2009–2017, J.Bayden 2021–2025) va respublikachilar (kichik J.Bush 2001–2009, D.Tramp 2017–2021, D.Tramp 2025–) ma‘muriyatlari davridagi siyosatdagi o‘zgarishlarni tahlil qilish.

Metodologiya. Tadqiqotda tarixiy-tizimli, qiyosiy-siyosiy va institutsional tahlil usullari qo‘llanildi. Empirik baza sifatida AQSH Davlat departamentining inson huquqlari yillik hisobotlari, USAID gender siyosati, Jahon banki va JIF indeksleri hamda Markaziy Osiyo bo‘yicha mintaqaviy hisobotlardan foydalanildi.

AQSHning Markaziy Osiyodagi umumiy yondashuvi energetika, xavfsizlik kabi strategik hamkorlik aloqalari bilan bir qatorda, inson huquqlari va gender tengligi yo‘nalishlarini ham o‘z ichiga oladi. Diplomatik muloqot, USAID va boshqa xalqaro tashkilotlar orqali dasturlar, huquqiy ta‘lim, fuqarolik jamiyati, ayollar tadbirkorligi va gender zo‘ravonlikka qarshi chora-tadbirlar asosiy diplomatik ta‘sir vositalari hisoblanadi [1]. Demokratik ma‘muriyatlar (B.Klinton, B.Obama, J.Bayden) iqtidorga kelganida gender tengligi va inson huquqlari masalalarini tashqi siyosatda normativ instrument sifatida ko‘proq qo‘llaganlar [2]. Respublikachilar hukmronligi davrida (kichik Bush, Tramp) esa strategik manfaatlar – xavfsizlik, energetika va biznes masalalari ustun bo‘lib qolmoqda, inson huquqlari aksariyat hollarda ikkinchi darajali vazifaga aylanib ulguradi.

AQSH–Qirg‘iziston. Qirg‘iziston AQSH tomonidan nisbatan ochiq siyosiy tizimga ega “demokratiya orolchasi” mamlakati sifatida baholanib keladi. AQSHning 2024-yilgi Inson huquqlari hisobotida qiynoqlar, qamoqxonalar sharoitining og‘irligi, jins asosidagi zo‘ravonlik va ayollar huquqlarining buzilishi qayd etilgan. Unda gender tengligi bo‘yicha ayollar salomatligi e‘tiborni taqozo etuvchi, zo‘ravonlik avj olgan va iqtisodiy imkoniyatlar cheklanganligi ta‘kidlanadi [1].

Qirg‘izistonda kelin o‘g‘irlash (“ala kachuu”) amaliyoti hali ham keng tarqalgan. Bu holat ayollarning huquqiy himoyasizligi, ularga nisbatan zo‘rlik ishlatilishi, tanlovsiz qoldirilishi va gender tengsizligining jiddiy belgisi sifatida AQSH diplomatik muloqotlarida doimiy ravishda ko‘tarib kelingan. AQSH USAID orqali sud tizimida gender tengligini ta‘minlash, ayol sudyalari rahbarligini kuchaytirish, zo‘ravonlikka qarshi strategiyalarni ishlab chiqish bo‘yicha hamkorlik qilgan [1]. Xususan, “Ukuk Bulagy” (“Huquq bulog‘i”) loyihasi huquqiy yordamni kengaytirish va gender zo‘ravonligiga qarshi kurashga qaratilgan [3].

Ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash uchun USAID quyidagi dasturlarni amalga oshiradi:

- **Qirg'izistondagi kichik va o'rta biznesda ayollar yetakchiligi (WLSME)** dasturi bo'yicha 620 nafar xotin-qizlar biznes boshqaruvi kurslarini o'tagan, 400 ta tarmoq va mentorlikdan foydalanib, 100 grant va maslahatlarni taqdim etgan [4].

- **Korxonalarining raqobatbardoshligi va agrosavdo (Enterprise Competitiveness va Agrottrade)** loyihasi bo'yicha 2020–2025-yillarda 41 nafar ayol tadbirkorga grant va texnik yordam ko'rsatilib, unda 5600 dan ortiq xotin-qizlar ish o'rinlariga ega bo'lgan [5].

- Bolalar bog'chalari uchun grantlar: 2022-yilda 2,8 mln som (taxminan 32 ming dollar) va 6 mln dollarlik dastur orqali ayollarga bolalar bog'chalarini ochishga yordam berilgan [6].

- **Ayol tadbirkorlar akademiyasi (AWE)**da 6 oylik gibrid dastur yordamida 20 nafar ayol tadbirkorga mentorlik ko'magi ko'rsatilgan [7].

Ushbu dasturlar ayollarning iqtisodiy faolligini oshirishga, gender tengligini mustahkamlashga xizmat qilgan.

AQSH–Qozog'iston. Qozog'iston bilan munosabatlarda AQSH energiya xavfsizligi va barqarorlikni birinchi o'ringa qo'yish barobarida inson huquqlari va gender tengligi masalalarini ham strategik hamkorlikning muhim qismiga olib chiqishga muvaffaq bo'lgan. Ayniqsa demokrat hukumatlar davrida AQSH Qozog'istonning inson huquqlari poymol bo'lishi, gender zo'ravonligi va xotin-qizlar huquqlarini takomillashtirish bo'yicha doimiy monitoring olib borgan [1].

Qozog'istonda oilaviy zo'ravonlik va diskriminatsiya keng tarqalgan. USAID “Human Rights Focus: Women and Children” loyihasi orqali ayollar va bolalar huquqlarini himoya qilish platformalarini yaratgan va gender tenglik hisobotlarini tayyorlagan [8]. Vashington Ostona bilan inson huquqlari bo'yicha muloqotlarini kuchaytirib, Prezident To'qayevning 2024-yilgi inson huquqlari bo'yicha qarorlarini olqishlagan va USAID orqali grantlar ajratgan [9]. Gender tengligi sohasida ayollar ishtirokini oshirish va zo'ravonlikka qarshi choralar ko'rilishini ijobiy baholagan [9].

AQSH–Tojikiston. Tojikistonda patriarxal jamiyat normalari, oilaviy zo'ravonlik va ayollarning siyosiy hamda iqtisodiy faolligi past bo'lishi gender tengligi muammolarini kun tartibiga olib chiqqan. AQSHning Tojikistondagi inson huquqlari va gender tengligi bo'yicha dasturlari USAID va xalqaro tashkilotlar orqali amalga oshirilgan [1].

Inson huquqlari dasturlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: huquqiy ta'lim, sud tizimi, ayol advokatlar va sudyalarni tayyorlash, faollar va jurnalistlarni rag'batlantirish [1]. Gender tengligi va ayollarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha:

- USAID loyihalarida gender tengligi integratsiyasi [8].

- UNDP tomonidan amalga oshiriladigan “Stop Gender-Based Violence in Tajikistan” loyihasi (2023–2028) insonning jinsiga nisbatan ajratish va unga zo'ravonlik qo'llashni bartaraf etish va barham berishga qaratilgan [10].

AQSH–Turkmaniston. AQSH–Turkmaniston munosabatlari inson huquqlari va gender tengligi masalalarida murakkabligicha qoladigan mavzu hisoblanadi. AQSH Turkmanistondagi surunkali tus olgan kamchiliklarni tanqid qilgan, ammo mamlakatdagi yopiq siyosat tufayli to‘g‘ridan-to‘g‘ri dasturlarni amalga oshirish cheklangan yoki imkonsiz bo‘lgan. AQSH Davlat departamentining 2024-yilgi hisobotida inson huquqlari holatida “muhim o‘zgarishlar mavjud emasligi” ta’kidlangan [1].

Hisobotda Turkmanistonda internet va VPN bloklanganligi, chet elga chiqish ta’qiqlari keng tarqalgan. AQSH bu masalalarni muzokaralarda bir necha bor ko‘targan, ammo to‘g‘ridan-to‘g‘ri loyihalar nihoyatda oz bo‘lib, boshqaruvni bilvosita shaffoflashtirish orqali ta’sir ko‘rsatishga intiladi [11]. Gender tengligi muammolari qonunlarda xotin-qizlar uchun teng huquqlar ko‘zda tutilgan bo‘lsa-da, amaliyotda gender zo‘ravonligi va diskriminatsiya mavjud. Milliy Gender tengligi harakatlar rejasi (2021–2025) mavjud bo‘lsa-da, ijrosi zaif ekanligi qayd etilgan [12]. AQSH USAID orqali Turkmanistonda boshqaruv faoliyati (GAT) (2024–2029) loyihasi yordamida boshqaruvni mustahkamlash, Xotin-qizlar uyushmasi bilan gender mavzusida seminarlarini o‘tkazadi, UNFPA bilan ijobiy gender normalarini targ‘ib etadi [11; 13]. Ammo yopiq muhit bois mazkur dasturlar iqtisodiy va boshqaruv sohasiga cheklangan miqdorda ta’sir kuchiga ega.

AQSH–O‘zbekiston bilan munosabatlarda inson huquqlari va gender tengligi o‘zaro aloqalarning muhim qismi bo‘lgan. 2024-yilgi Strategik sheriklik muzokaralarida gender asosidagi zo‘ravonlik (GBV) va mehnat huquqlaridagi yutuqlar muhokama qilingan [14].

Vashington Toshkent O‘zbekiston Respublikasining BMTning 2022–2025-yillarga mo‘ljallangan Xotin-qizlar, tinchlik va xavfsizlik to‘g‘risidagi 1325-sonli rezolyutsiyasidan kelib chiqadigan talablarni amalga oshirish bo‘yicha Milliy harakatlar rejasi va Gender tengligi strategiyasi (2030)ni qabul qilganini [15] olqishlagan (16; 17). AQSH USAID va UNDP orqali huquq ustuvorligi loyihalarini qo‘llab-quvvatlab kelgan. 2025-yilda 33 mingdan ortiq kishi bepul huquqiy yordam olgan, “Yuridik Yordam” platformasi ishga tushirilgan. Amalga oshirilgan gender tengligi dasturlari quyidagilardan iborat:

- Xotin-qizlarga iqtisodiy madad dasturi (3,4 mln dollar): 1000 chekka hududlardagi xotin-qizlarga kasb-hunar va tadbirkorlik treninglari, ishga joylashtirish va o‘z bizneslarini boshlash bo‘yicha yordami [14].

- Jinsiy zo‘ravonlikka qarshi anjumanlar, xabardorlikni oshirish va profilaktika dasturlari [14].

- AQShning O‘zbekistondagi Elchixonasi “Self-defense” lagerlari orqali xotin-qizlarga o‘zlarini o‘zlari himoya qilish ko‘nikmalariga ham o‘rgatadi [18].

Jahon iqtisodiy forumining 2025-yilgi “Jinsiy tafovutlar to‘g‘risidagi” hisobotiga ko‘ra Markaziy Osiyo davlatlarining gender tengligi ko‘rsatkichlari quyidagicha:

Davlat	Reyting	Umumiy ko‘rsatkich	Kuchli tomonlari	Zaif tomonlari
--------	---------	--------------------	------------------	----------------

Davlat	Reyting	Umumiy ko'rsatkich	Kuchli tomonlari	Zaif tomonlari
Qozog'iston	100 talik ichida	~71,5%	Iqtisodiy ishtirok	Siyosiy vakillik
Qirg'iziston	O'rta	~68–70%	Ta'lim, sog'liq	Siyosat, mehnat
Tojikiston	129	64,6%	Sog'liq	Ta'lim, siyosat
Turkmaniston	Past	65–68%	Iqtisodiy o'sish	Siyosat
O'zbekiston	100 talik ichida	70%+	Siyosat	Iqtisodiy vakillik

Manba. World Economic Forum. Global Gender Gap Report 2025.

WEF ma'lumotlari ta'lim va sog'liq sohalarida yuqori natijalarni ko'rsatadi, ammo siyosiy vakillik va iqtisodiy imkoniyatlarda bo'shliqlar mavjud. Bu AQSHning gender siyosatini ijtimoiy xizmatlar bilan birga siyosiy va iqtisodiy islohotlar bilan mustahkamlash zarurligini ko'rsatadi [19].

Dastlabki ayrim xulosalar. AQSHning Markaziy Osiyodagi inson huquqlari va gender tengligi siyosati strategik manfaatlar bilan birga normativ qadriyatlarni ham o'z ichiga oladi. B.Klinton, B.Obama, J.Bayden davridagi demokratik ma'muriyatlar gender va huquqiy islohotlarni qo'llab-quvvatlashga ko'proq resurs ajratgan, respublikachilar – J.Bush kichik davrida xavfsizlik, D.Tramp davrida esa biznes va energetika manfaatlari ustun qo'yilmoqda.

Mintaqa bo'yicha gender tengligi ta'lim, sog'liqni saqlash kabi ijtimoiy sohalarida nisbatan yaxshi bo'lsa-da, siyosiy tamsil etilish, stereotiplar muammosi hamda savdo-iqtisodiy imkoniyatlar bo'yicha bo'shliqlar saqlanib qolmoqda. Mintaqa mamlakatlarining o'ziga xos ochiqlik va / yoki yopiqlik siyosati Amerikaning bevosita ta'sirini cheklaydi. davom etadi. Yaqin kelajakda mintaqaga Vashington tomonidan yo'naltirilgan mavjud gender madaniyatini o'zgartirish, ijtimoiy normalarni joriy etish, siyosiy vakillik va iqtisodiy ishtirokni oshirishga yo'naltirilgan alohida dasturlarning qabul qilinishi ehtimoli kam.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. U.S. Department of State. Country Reports on Human Rights Practices 2024–2025. www.state.gov/reports/2024-country-reports-on-human-rights-practices
2. U.S. National Strategy on Gender Equity and Equality, 2021. <https://bidenwhitehouse.archives.gov/wp-content/uploads/2021/10/National-Strategy-on-Gender-Equity-and-Equality.pdf>
3. USAID “Ukuk Bulagy” Project 2021–2025. <https://ewmi.org/our-work/civic-engagement/kyrgyzstan-ukuk-bulagy/>
4. USAID. Women's Leadership in Small and Medium Enterprises (WLSME) project materials. www.acdivoca.org/projects/womens-leadership-in-small-and-medium-enterprises-program-in-kyrgyzstan
5. Enterprise Competitiveness / Agro Trade Project reports (USAID). www.acdivoca.org/news/by-country/kyrgyzstan
6. U.S. Embassy in Kyrgyzstan. Grants for childcare and related programs.

7. American Chamber of Commerce Kyrgyz Republic. Academy for Women Entrepreneurs (AWE) 2023-2024. www.amcham.kg/wp-content/uploads/academy-for-women-entrepreneurs-kyrgyzstan-2023_eng.pdf
8. USAID Launches New Human Rights Activity For Women And Children. December 8, 2021 <https://kz.usembassy.gov/usa-id-launches-new-human-rights-activity-for-women-and-children/>
9. Central Asia's Scorecard on Women's Rights and Welfare. Times of Central Asia. April 18, 2024 <https://timesca.com/central-asias-scorecard-on-womens-rights-and-welfare>
10. UNDP. In Tajikistan, fighting gender-based violence systemically through the legal realm December 5, 2024. www.undp.org/eurasia/stories/tajikistan-fighting-gender-based-violence-legal-realm
11. U.S. Embassy in Turkmenistan. Governance Activity in Turkmenistan (GAT). May 1, 2024 – April 30, 2029 <https://tm.usembassy.gov/usa-id-programs-in-turkmenistan>
12. OHCHR. Committee on the Elimination of Discrimination against Women Welcomes Turkmenistan's National Action Plan on Gender Equality, Asks about Measures to Prevent Domestic Violence and the Exploitation of Women Labourers. February 2, 2024 www.ohchr.org/en/meeting-summaries/2024/02/committee-elimination-discrimination-against-women-welcomes-turkmenistans
13. UNFPA. Turkmenistan gender programs and partnership reports. Undated. <https://turkmenistan.unfpa.org/en/topics/gender-equality>
14. U.S. Embassy in Uzbekistan. Strategic Partnership and GBV/ Labor rights dialogues. Archives.
15. PeaceWomen. National Action Plan 1325 (Uzbekistan). <https://1325naps.peacewomen.org/wp-content/uploads/2025/02/Uzbekistan-NAP-1325-English.pdf>
16. AQSh O'zbekistonning gender siyosatni amalga oshirishdagi sa'y-harakatlarini qo'llab-quvvatlashni davom ettiradi. Kun.Uz 18.06.2022 <https://kun.uz/news/2022/06/18/aqsh-ozbekistonning-gender-siyosatni-amalga-oshirishdagi-say-harakatlarini-qollab-quvvatlashni-davom-ettiradi>
17. US Embassy Tashkent. Joint Statement from the United States and Uzbekistan on Women, Peace, and Security October 30, 2020 <https://uz.usembassy.gov/joint-statement-from-the-united-states-and-uzbekistan-on-women-peace-and-security>
18. U.S. Embassy in Uzbekistan. Self-defense Camp for Women and Girls. New Round 2025. <https://uz.usembassy.gov/self-defense-camp-tashkent-2025>
19. World Economic Forum. Global Gender Gap Report 2025. https://reports.weforum.org/docs/WEF_GGGR_2025.pdf